

SHEKSPIRNING “ROMEO VA JULETTA” TRAGEDIYASINING SAXNAVIY TALQINI VA BADIY XUSUSIYATLARI

Xojanova Mexriban Jabbarbergenovna – *docent*

xojanovamexriban@gmail.com

O‘zDSMI Nukus filiali San‘atshunoslik kafedrası

СЦЕНИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ТРАГЕДИИ ШЕКСПИРА “РОМЕО И ДЖУЛЬЕТТА”

Хожанова Мехрибан Жаббарбергеневна – *доцент*

кафедры искусствоведения

Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

STAGE INTERPRETATION AND ARTISTIC CHARACTERISTICS OF SHAKESPEARE’S TRAGEDY “ROMEO AND JULET”

Khojanova Mehriban Jabbarbergenovna – *Associate Professor*

of the Department of Art History

Nukus Branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Tayanch so‘zlar: teatr, aktyor, rejissyor, spektakl, sahna, dekoratsiya, obraz, dramaturgiya, xudojnik, tragediya, komediya, repertuar.

Rezyume. Shekspirning tragediyalari orasida eng lirik hissiyotlarga boy, chin oshiqning muhabbatini tasvirlovchi klassik asari «Romeo va Juletta» Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri sahnasida sahnalashtirildi. Bu klassik asarni sahnalashtirish orqali qoraqalpoq teatri ijodkorlarining qanchalik darajadagi iste’dod egalari ekanligi dalillandi.

Ключевые слова: театр, актёр, режиссёр, спектакль, сцена, декорация, образ, драматургия, художник, трагедия, комедия, репертуар.

Резюме. Среди трагедии Шекспира на сцене юной публики Каракалпакского государственного театра была поставлена классическая трагедия "Ромео и Джулетта", изображающая самых лирических эмоции. Постановкой этого классического произведения доказано, насколько талантливы создатели каракалпакского театра.

Key words: theater, actor, director, performance, dekor, image, dramaturgy, tragedy, comedy, repertoire.

Summary. Shakespeare’s tragedy and his lyrics dedicated to the play "Romeo and Juletta" were staged at the Karakalpak Theater. The theater premiered in a classical theater when new talents appeared in the theater.

KIRISH. Angliya uyg‘onish davrining eng taniqli ijodkori, dramaturg, faylasuf, shoir va aktyor Uilyam Shekspirning (1564-1616) nomi va u yaratgan noyob asarlari tarixda abadiy saqlanib qoldi. Uning qalamiga mansub bir qator tragediya, komediyalardan «Qaysar qizning quyilishi», «Gamlet», «Qirol Lir», «Otello», «Romeo va Juletta», «Veneciya savdogari», «Yuliy Sezar», «Makbet», «Koriolan», «Antoniy va Kleopatra» va boshqa ijod mahsullari ham dunyo sahnasida o‘z o‘rnini yo‘qotmasdan kelayotgan klassik asarlar hisoblanadi. Uning tragediyalarida inson qiyofasi, uning psixologik kechinmalari, tuyg‘ularining eng yuqori cho‘qqisi shu darajada dramaturgik harakat, ichki harakat va kolleziya, xarakterlarning hech qanday kamchiliksiz to‘qnashuvi bilan ochib beriladi, biz uning sahnadagi talqinini tomosha qilib turib Shekspirning qalbi qay darajada filosofiyaga boy ekanligini anglaymiz. Tragediya yunoncha «echki qo‘shig‘i» degan ma‘noni anglatadi. Afsona,

rivoyat va ertaklar o‘z - o‘zidan tug‘ilmaydi. Ularning zamirida ignaning ko‘zidek bo‘lsa ham haqiqat yotadi. Ikki oq qushning biri o‘lsa ikkinchisi ham o‘ladi yoki bizga klassik asar bo‘lib bugingi kunda ham kelajak avlodlarimiz uchun o‘lmas adabiy meros, dramatik qahramon bo‘lib, ularning qo‘shiqlarida, hayollarida tasvirlangan so‘zsiz oshiqlar Romeo va Juletta.

USULLAR. Mazkur ilmiy maqola mavzusini yoritishda tavsifiy, tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va kompleks yondashuv tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot nazariy va tarixiy-badiiy tushunishga qaratilgan zamonaviy san‘atshunoslik usullari asosida ko‘rib chiqilgan.

NATIJAR VA MUNOZARA. Veronaning ikki yosh niholining ayni bahorga qadam qo‘yib gullab yashnamay xazon bo‘lishi achinarli yakun albatta. Mana shu orqali dramaturg Shekspirning mahorati bilan obro‘si yanada ulug‘lanadi va ko‘kka yetadi. Oradan bir necha asrlar o‘tsa ham noyob asarning qiymati tengsiz, nomi esa boqiy

hisoblanadi. «Dunyodagi eng ulug' kamchilik bu sevishtanlarning birga bo'lmashligi» deya ta'kidlagandi donishmandlardan biri. Shu achchiq haqiqat va zulim shu tragediyada o'z aksini topgan. Teatr san'atining dunyo miqyosida rivojlanishiga sababchi bo'lgan, o'zining betakror, klassik asarlari bilan tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirib ketgan iste'dodli dramaturg Uilyam Shekspirning dramaturgiya janridagi asarlari kirib bormagan mamlakat, spektakllarini tomosha qilmagan inson bo'lmasa kerak. Sababi, dramaturg o'z fantaziyasi orqali dunyoga kelgan komediya, tragediya va dramalari bilan teatr san'atida katta namuna maktabini yaratib ketdi.

Shekspirning tragediyalari orasida eng lirik hissiyotlarga boy, chin oshiqning muhabbatini tasvirlovchi klassik asari «Romeo va Juletta» Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida ham sahnalashtirildi. Bu klassik asarni sahnalashtirish orqali qoraqalpoq teatri ijodkorlarining qanchalik iste'dod egalari ekanligi o'z tasdig'ini topdi.

Qoraqalpog'iston xalq shoiri Uzoqboy Pirjanov tarjimasida «Romeo va Juletta» pyesasini qo'lga olib, sahnada spektakl darajasiga olib chiqqan qoraqalpoq rejissurasida o'z o'rniga ega zamonaviy talqindagi bir qator spektakllarni yaratgan taniqli aktyor va rejissyor Amangeldi Qudaynazarov o'z didi va rejissyorlik qobiliyatining qanchalik baland ekanligini isbotlay oldi desak aslo yanglishmagan bo'lamiz. Chunki, bu spektakl barcha tomoshabinlarning diqqat - e'tiborini tortdi. Spektakldagi rejissyorning yutug'i spektakl boshida va oxirida sahna bichimlaridan o'z o'rnida foydalana olgan va boshqacha yondashuv bilan asarni yakunlagan. So'ngi yillarda sir emaski biz ko'pincha drama va komediya asarlarini ko'rishga o'rganib qolgan edik, bu tragik asarning ayni yosh tomoshabinlar uchun moslashtirib, ularning yosh toifasiga qarab birinchi bor qo'yilgan spektakl juda yaxshi natijaga erishdi.

Spektakl boshida Verona qalasida ikki boy oila Kapuletti (artist R.Urazbaev) va Montekki (artist J.Abdimov)larning xizmatkorlari bir-biri bilan bo'lgan janjalidan boshlanadi. Keyin Knyaz (artist S.Arziev) kelib oila janjalini to'xtatadi. Knyaz ularning azaliy dushman ekanligini aytib, shahardagi tinchlikni buzuvchi oilalar sifatida ko'radi. A.Qudoynazarov va A.Palimbetovlar tomonidan tanlangan musiqalar ham o'z maromida mahorat bilan foydalanilgan ya'ni, lirik hissiyotlar uyg'ongan paytdagi berilgan musiqasi va urish, kurashish sahnalaridagi ta'sirli musiqalarni o'z o'rnida va ayni vaqtda foydalana olgan. Albatta spektaklda musiqa alohida

ahamiyatga ega, u voqelikni yanada ta'sirchan etishda ahamiyat ega faktor hisoblanadi.

Kirish qismidan so'ng bazmda Romeo (artist R.Tilemisov) bilan Juletta (aktrisa B.Baxiyeva)ning to'satdan ko'rishib qolishi spektaklning tuguni hisoblanadi. Mana shu joydan boshlab ikki yosh bir- biriga ko'ngil qo'yib, ularning orasida muhabbat tuyg'usi uyg'ona boshlaydi. Lekin bir qarama-qarshi tarafi ikki yosh dushman oilalarning farzandlari edi. Mana shu taqlitda voqealar rivojlanib boradi. Aktyor - aktrisalari o'sha davrdagi qahramonlarning haqiqiy xarakter va xulq atvorlarini, harakatlarini, mimikalarini chuqur ochib bera olgan, bu esa tomoshabinlarda komik syujetlarga qiziqish, tragik syujetlarda havotirlanish tuyg'ularini uyg'ota oladi. Spektakl oxirigacha tomoshabin jilmasdan, zerikmasdan tomosha qiladigan asar teatr sahnasidan joy oldi.

Tugundan so'ng spektaklning rivojlanishida Julettaning Boquvchisi (aktrisa G.Japarova) bilan Romeoning do'stlari hazil qilishi va shu bilan birgalikda Tibalt (artist D.Qayipnazarov) va Merkutsiyoning (artist I.Begjanov) janjallashishi sabab bo'lib voqealar oqimi keskin tus ola boshlaydi. Ruhoniy ota bilan nikox vaqtini kelishish, Romeo va Julettaning tun qo'ynidagi suhbatlari orqali syujet borgan sari kuchayib, avj ola boshlaydi.

Kulminatsiya - bu Romeoning suyuklisi Julettaning akasi Tibaltni (artist D.Baynazarov) o'ldirishi hisoblanadi. Chunki, jahl ustida Tibalt uning do'sti Merkutsiyoni o'ldirgan edi. Qahramonlarning jahl ustida qilgan yovuzliklarini dramaturg shunday mahorat bilan tasvirlagan, buni spektakl orqali sahnada aktyorlar maromiga keltirib yetkaza olgan.

Shunday qilib, bu keskinlik va qarama-qarshilik ikki oilaning o'rtasida yana da g'azabni kuchaytiradi va janjal paydo bo'ladi. Bu orada Romeo (artist R.Tilemisov) shahar meri tarafidan surgunga hukm qilinib, suyuklisini ko'rish mushkul ishga aylanadi. Ular ikkisi vadalashgan nikoh kunida ham ruhoniy ota yordamida kelishiladi. Lekin, ularning taqdiri ayanchli yakun topadi. Dramaturg o'sha davrning eng kuchli ajal dorisi sanalgan zahardan unumli foydalana olgan. Asarni yakunlashdan oldin muallif Julettaga zahar ichiradi. Uning xushiga kelishini biladi. Ammo shu sirdan Romeoning xabari bo'lmay, suyuklidan butunlay ayrildim deb o'ylaydi va o'z joniga qasd qiladi.

Shu o'rinda muallif mahorat bilan qahramon uchun yakun, tomoshabin uchun esa ochiq oydin voqeani tasvirlab, yana ham ta'sirchanlikni uyg'otadi.

Zaharning ta'siri qaytganidan so'ng Juletta o'ziga kelganda yonida jonsiz yotgan Romeoni ko'rib butunlay esidan ayriladi va u ham o'zini xanjar bilan o'ldiradi. Bu voqealar ularning 14-15 yoshlarida, muhabbat g'unchalari gul ochgan paytida yuz beradi. Avtor bu voqelikdagi inson psixologiyasining qanday bo'lishini aniq tasvirlab bera olgan.

Asar yakunida yechim - qayg'u bilan yakun topgan, ammo shu voqeadan so'ng Kapuletti va Montekki oilalari yarashishadi. Biroq, eng bebaho boyligi bo'lgan farzandlaridan ajralishadi. Asar mana shunday tragik yechim bilan tugaydi.

«Kuchli aktyordan kuchli rejissyor chiqadi» deganlaridek, rejissyor A.Qudaynazarov ilgari iste'dodli aktyor bo'lganligi uchun ham bu pyesani shunday mahorat bilan sahnaga olib chiqdi. Aktyorlar jamoasini to'g'ri tanlab, voqealar oqimini ketma-ketlikda bera olgan. Xarakter - dramada voqealarni rivojlantiruvchi asosiy faktorlardan biri sanaladi. Bunda yaxshi va yomon xarakterlarning to'qnashishi orqali konflikt va harakat yuzaga kelgan, demak xarakter konflikt bilan harakatni paydo qiluvchi mo'ljal sifatida keladi. Tragediyada ichki va tashqi xarakterlar va konfliktlar ochiq-oydin o'z qiyofasini topadi. Harakat dramaning asosiy markazi hisoblanadi, harakat orqali rejissyor spektaklga tomoshabin e'tiborini qarata olgan.

Spektaklni sahnaga olib chiqishda teatr jamoasi o'zgacha, o'ziga xos uslub va metodlarga tayanib, klassik bir asarni maromiga yetqazib ijro eta oldi. Teatr aktyorlaridan iborat ansambl rejissyor tomonidan yaxshi tanlangan. Har bir obraz aynan o'sha aktyor uchun yaratilganga o'xshaydi. S.Arziev (Knyaz), Qoraqalpog'iston

Respublikasiga xizmat ko'rsatgan artist J.Abdimov (Montekki rolida), R.Urazbaev (Kapuletti), R. Tlemisov (Romeo), I.Begjanov (Merkutsio), A.Xojamuratov (Venvolio), D.Qayipnazarov (Tibalt), J.Berdibekov (Monarx Lorenzo), T.Erejepov (Baltazar), Sh.Dauletmuratov (Samson), N.Aytmuratov (Grigorio), P.Kelimbetov (Petr xizmatker), I. Qunnazarov (Abram), O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist L.Xaliqnazarova (Montekki xonim), A.Naurizova (Kapuletti xonim), I. Sarsenbaeva (Juletta), G.Japaroova (Tarbiyachi kampir) teatrning barcha aktyorlari Verona xalqi rolini ijro etadi.

Spektaklning muaffaqiyatli chiqishida teatrning butun bir jamoasi katta mehnat qilgan. Rassomdan boshlab chiroq ustasigacha, har bir xodim o'ziga berilgan vazifani sidqidildan bajargan. Spektakl teatr repertuarining oltin xazinasidan joy oldi.

Yakuniy so'zni aytadigan bo'lsak, «Romeo va Juletta» Shekspirning ranglarga burkangan pyesalaridan biri, unda nozik, quvnoq kulgudan nochorlikka, tushkunlikka tushish, muhabbatning g'azabga aylanishi, inson xarakterining nozik jihatlari ochib berilgan. Lekin hayotni sevish, haqiqat va yaxshilikka bo'lgan ishonch yuqori turadi. Bu Shekspirning qobilyatini yuzaga chiqargan birinchi asari hisoblanadi. Tragediya shu ma'nodagi asarlarning eng yaxshi namoyondasi bo'lgani uchun ham jahon xazinasidan joy oldi. «Romeo va Juletta»ning Qoraqalpoq sahnasiga kelishi-dunyo klassikasining qay darajada qoraqalpoq teatr ustalari tomonidan sahnaga olib chiqishidagi mahoratini yana bir bora isbotladi.

Adabiyotlar

1. Arastu. Poetika. – T: Yangi asr avlodi, 2012.
2. Ansatbaev N. Teatr hám aktyor, sabaqlıq. 2020.
3. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
4. V.Shekspir. «Romeo Djulletta».
5. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
6. Rizayev Sh. Jadid dramasi. T.:Sharq. 1997.
7. Tursunov T. Ózbek teatr tarixi. T., 2008.
8. Tursunboev S. Teatr tarixi. T., Fan va texnologiya nashriyoti. 2008.
9. F.Sulaimonova «Shekspir Uzbekistonda». T., FAN, 1978.